

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA
TADQIQOT INSTITUTI**



**“Mintaqaviy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari” nomli
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami**

(2026-yil 15-aprel)

Toshkent – 2026-yil

UDK 343.97(575.1)
KBK 67.518.0(5Y3)

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot Instituti kengashining 2026-yil “15” may 5-sonli bayonnoma qarori bilan elektron va bosma shaklda nashrdan chiqarishga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **B.E. Berdialiyev**.

Ilmiy muharrir:

yuridik fanlar doktori, professor **X.T. Odilkoriyev**;
falsafa doktori (PhD), professor **R.O. Nigmatov**;
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **Sh.O. Azim**.

Tuzuvchilar:

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent **Ya.Y. Ollamov**;
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **S.A. Isayev**.

Mintaqaviy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami (2026-yil 15-aprel) / Mas’ul muharrir yu.f.b.f.d. B.E. Berdialiyev. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026. – 370 b.

Ushbu to‘plamda mintaqaviy (hududiy) jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar, tahliliy yondashuvlar va amaliy takliflar jamlangan. Unda jinoyatchilikning turlari, hududlar kesimidagi o‘zgarishlar, profilaktika tizimini takomillashtirish masalalari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

To‘plam ilmiy jamoatchilik, tadqiqotchilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, shuningdek, mazkur sohaga qiziquvchi barcha o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolalarning mazmuni hamda faktlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldir.

Payziyev Dilshat Yuldashbayevich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Abduqodirov Farhodjon Faxritdin O'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

YANGI O'ZBEKISTONDA GIYOHVANDLIK BILAN BOG'LIQ JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH VA OLDINI OLISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Giyohvandlikning jamiyat va yoshlar hayotiga salbiy ta'siri, uning tarqalish sabablari va omillari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mamlakatda mazkur illatga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, jumladan huquqiy, profilaktik va tashkiliy mexanizmlar yoritilgan. Muallif tomonidan giyohvandlikka qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, narkojinoyatchilik, profilaktika, yoshlar, psixotrop moddalar, jinoiy javobgarlik, huquqiy mexanizmlar, jamoatchilik.

ПРОБЛЕМЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ И ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ, СВЯЗАННОЙ С НАРКОМАНИЕЙ, В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы борьбы с преступностью, связанной с наркоманией, и её предупреждения в условиях Нового Узбекистана. Анализируются причины и факторы распространения наркотических средств, их негативное влияние на общество, особенно на молодёжь. Освещаются реализуемые в стране меры противодействия наркопреступности, включая правовые, профилактические и организационные механизмы. Автор предлагает ряд рекомендаций, направленных на повышение эффективности борьбы с данным явлением.

Ключевые слова: наркомания, наркопреступность, профилактика, молодёжь, психотропные вещества, уголовная ответственность, правовые механизмы, общество.

ISSUES OF COMBATING AND PREVENTING DRUG-RELATED CRIME IN NEW UZBEKISTAN

Abstract. The article addresses current issues of combating and preventing drug-related crime in the context of New Uzbekistan. It analyzes the causes and factors of drug abuse, as well as its negative impact on society, particularly on youth. The study highlights the measures implemented in the country to counter drug-related crime, including legal, preventive, and organizational mechanisms. The author proposes recommendations aimed at improving the effectiveness of anti-drug policies.

Keywords: drug abuse, drug-related crime, prevention, youth, psychotropic substances, criminal liability, legal mechanisms, society.

Giyohvandlik mamlakatning, jamiyatning rivojiga to'sqinlik qiluvchi ta'sirli omillardan biri hisoblanadi. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalaga kirishi jahon hamjamiyati oldiga jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, so'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda ushbu og'uni iste'mol qiluvchilar soni ortib bormoqda. Ayanchlisi, bu borada yoshlarning ulushi ancha katta. "World Population Review" ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish bo'yicha mamlakatlar reytingida 95-o'rindan joy olgan. Bu borada bugungi kunda Qozog'iston - 8, Qirg'iziston - 23, Turkmaniston - 41, Tojikiston - 76 o'rinda turibdi. [1]

Butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi dorilarning yoshlar orasida keng tarqalayotgani yechimini topish zarur bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illatning yoshlarimiz orasida ommalashishi o'ta xavflidir. Chunki bu illat jamiyatimizning hozirgi va ertangi kuniga salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Jamiyatimizda bu kabi illatlarning tarqalishiga qarshi kurashishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki barchamiz (oila, maktab, mahalla, OTM, jamiyatimiz va boshqa.) mas'ul bo'lmog'imiz lozim. Respublikamizda 2025-yilda tezkor tadbirlar natijasida jami 3 tonna 413 kg narkotik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo'yilib, iste'molga chiqib ketishining oldi olingan. Shuningdek respublikada huquq-tartibot idoralarining sa'y-harakatlari natijasida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq 15 412 ta jinoyat va 1 956 ta ma'muriy huquqbuzarlik aniqlangan.

Mazkur tadbirlar natijasida 3 tonna 413 kg narkotik, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo'yilib, iste'molga chiqib ketishining oldi olindi. Narkojinoyatlarning 53 foizi Toshkent shahri (3 986 ta), Farg'ona (2 178 ta) va Toshkent (1 954 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Giyohvandlik vositalarining eng ko'pini "gashish" (48 foiz yoki 1 tn 470 kg) va "opiy" (27 foiz yoki 819 kg) moddalari tashkil etgan. Shuningdek, 14 ta yashirin narkolaboratoriyalar aniqlanib, ularda saqlangan jami 75 kg giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar musodara qilindi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2025-yilda O'zbekistonda giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha 3,8 ming nafar shaxs javobgarlikka tortildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ularning qariyb 93 foizi yoshlar hisoblanadi [2].

Narkojinoyat sodir etgan 11 049 nafar shaxslar javobgarlikka tortildi. Achinarlisi, jinoyatchilarning 59 nafarini maktab o'quvchilari, 124 nafarini talabalar tashkil etgan" [3].

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida ushbu illatning ko'payib, ortib borayotganligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- o'smirlarning turli narsalarga qiziquvchanligi;
- o'smirlarning ta'sirga beriluvchanligi;
- ushbu illat tufayli kelib chiqadigan kasalliklarni yoshlarning bilmasligi;
- aholi, ayniqsa yoshlar orasida bu illat to'g'risidagi axborotning kamligi;
- yoshlarning huquqiy madaniyati yetarli darajada emasligi va boshqalar.

Narkologik hisobga olingan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan giyohvandlar 60 foizga ko'paygan. Shuningdek, mamlakatimizda giyohvand moddalarni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq jinoyatlarning salmog'i ham ko'paygan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma'lumotlariga ko'ra 2025-yilda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun 10134 nafar shaxs sudlangan [4].

Ko'rinib turibdiki, sanab o'tilganlarning aksariyati insonning o'zi bilan bog'liq va bu illatga aralashib qolishning oldini olish, unga qarshi kurashishda yangi yondashuvlar, yangi usullar zarurligini ko'rsatmoqda. Bu illatga qarshi kurashishda najot yo'li bitta – muammoning oqibatlarini bilan emas, balki sabablari bilan kurashishdir. Bu kurash esa kompleks choralar ko'rish, targ'ibot-tashviqot va media imkoniyatlaridan keng foydalanish, ushbu illatga nisbatan jamoatchilikda murossasiz muhitni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bu borada bir qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Xususan, har yili fevral oyida huquqni muhofaza qiluvchi organlar “Yoshlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalarning tarqalishiga qarshi kurashish” oyligi o'tkaziladi. Birgina 2025-yilda maktablar, o'rta maxsus bilim yurtlari, litseylar, oliy ta'lim muassasalarida “Biz giyohvandlikka qarshimiz” mavzusida tashkil etilgan o'n mingdan ortiq uchrashuv va targ'ibotda minglab yoshlar qamrab olingan.

Ushbu tadbirlarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va “kuchli ta'sir qiluvchi yengil narkotik” sifatida ommalashib borayotgan dorilarning inson salomatligi bilan bir qatorda turmush tarziga, kelajagiga, yaqinlariga salbiy ta'siri to'g'risida yoshlarga mutaxassislar tomonidan tushuntirishlar berildi.

Mazkur muammoning ildizini quritish va yoshlarning turli xil aldovlarga ishonib qolmasliklarini ta'minlash uchun ushbu illatga qarshi kurashishda quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur sohada jinoyatchilikka qarshi murossasiz kurashishni ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2025-yil 3-noyabrdagi PF-207-son Farmon

chiqarilib, unda O'zbekiston aholisining salomatligi va millat genofondiga jiddiy tahdid solayotgan giyohvandlik illatiga qarshi kurashish hamda bunga sabab bo'layotgan uyushgan narkojinoyatchilikka chek qo'yishga qaratilgan normativ-huquqiy, tezkor-profilaktik va tashkiliy-tarbiyaviy choralar kompleksini belgilash, voyaga yetmaganlar va yoshlarimiz kelajagini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan har tomonlama asrash — barcha darajadagi davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarining dolzarb vazifasi ekanini alohida qayd etish hamda ularning bu boradagi mas'uliyatini tubdan oshirish asosiy maqsad sifatida belgilandi [5].

Ta'kidlash joizki, dunyoqarashi endigina shakllanib kelayotgan, bor kuch-g'ayratini faqat bilim olishga, izlanishga, hunar o'rganishga sarflashi lozim bo'lgan o'smirlarni aldov yo'li bilan giyohvandlik qurboniga aylantirayotganlar oz emas. Ularning o'z hamyonini to'ldirish ilinjida og'uni yoshlar orasida tarqatishiga jim qarab turib bo'lmaydi, albatta. Shu bois yosh avlod ongida oqni qoradan ajrata oladigan o'ziga xos immunitet shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada e'tiborni giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilganlik uchun javobgarlik masalasiga qaratadigan bo'lsak amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 270-276-moddalarida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu jinoyatlarni sodir etganlik uchun og'ir jazo sifatida bir oydan yigirma yilgacha OMQ jazosi nazarda tutilgan [6].

Shu bilan birgalikda endilikda giyohvandlik vositalari yoki ularning analoglari va psixotrop moddalarni telekommunikatsiya tarmoqlari va internetda reklama qilish, namoyish etganlik uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlik kuchaytirildi. Narkotik moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay noqonuniy saqlagan yoki tashigan shaxslar ham javobgarlikka tortilishi belgilandi. Xususan, Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni telekommunikatsiya tarmoqlaridan va internetdan foydalanish orqali

qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik, ushbu jinoyatlarni voyaga yetmaganlarni jalb qilgan holda sodir etganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirildi. Shuningdek giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda olganlik, saqlaganlik, tashiganlik yoki jo'natganlik uchun ham ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilandi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bu sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida, giyohvandlik vositalarini noqonuniy muomalaga kiritishga hokimiyat (mansab) vakolatlarini suiiste'mol qilish yo'li bilan homiylik (rahnamollik) qilish yoki bunday jinoyatlar fosh bo'lishining oldini olish maqsadida xabar berganlik, giyohvandlik vositalarini har qanday shaklda iste'mol qilishga jalb etish odam o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan holatlar uchun jinoiy javobgarlik choralarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/drug-use-by-country>
2. <https://zamin.uz/jamiyat/185222-ozbekistonda-narkotik-bilan-bogliq-jinoyatlarning-asosiy-qismi-eshlar-hissasiga-togri-kelmoqda.html>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/02/02/narkotik/>
4. <https://stat.sud.uz/criminal>
5. Ўзбекистон Республикасида гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларнинг ноқонуний айланмасига чек қўйиш орқали уларнинг аҳоли саломатлиги ва мамлакатимиз генофондига салбий таъсирини бартараф этиш стратегик чора-тадбирлари тўғрисида»ги Президент Фармони <https://www.lex.uz/uz/docs/6912475>
6. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: <https://www.lex.uz/acts/111453>

Axmedov Farxod Saydaliyevich

*Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli
o'qituvchisi, podpolkovnik
+ 99899 822-63-27*

VOYAGA YETMAGANLARGA IJTIMOY YORDAM KO'RSATISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimining huquqiy va institutsional asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan voyaga

Mundarija

| | |
|--|-----|
| Kirish soʻzi..... | 3 |
| Berdialiyev B.E. Mintaqaviy jinoyatchilik dinamikasi va uning tendensiyalari: ijtimoiy profilaktikaning kriminologik ahamiyati..... | 4 |
| Nigmatov R.O. Buyuk Britaniyada jazo tayinlash siyosatining zamonaviy evolyutsiyasi: institutsional va huquqiy tahlil..... | 12 |
| Якубов А.С., Азим Ш. О. Здоровье населения и генофонд нации под охраной уголовного закона..... | 25 |
| Ollamov Ya.Y., Nurmetov Q.A. Zamonaviy korrupsiya koʻrinishlarining turlari va shakllari..... | 43 |
| Maxsadov M.I. Hududiy jinoyatchilikning dinamikasi va tendensiyalari (Toshkent shahri Uchtepa tumani misolida)..... | 56 |
| Kaxarova M.M. Ayollar jinoyatchiligi hududiy determinatsiyasining ilmiy-amaliy asoslari..... | 68 |
| Payziyev D.Yu., Abduqodirov F.F. Yangi Oʻzbekistonda giyohvandlik bilan bogʻliq jinoyatchilikka qarshi kurashish va oldini olish masalalari..... | 77 |
| Axmedov F.S. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam koʻrsatishning huquqiy asoslari..... | 82 |
| Roʻziyeva G.S. Giyohvandlik muammosi va uning profilaktikasi..... | 92 |
| Mirzayev J.U. Qayta jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan profilaktik choratadbirlar tizimini takomillashtirish..... | 103 |
| Xaydarov M.M. Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashda jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirish: Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muammolar va islohot yoʻnalishlari..... | 109 |
| Tulebaev B.R. Oʻzbekiston Respublikasida qurol muomalasi sohasini huquqiy taʼminlashning oʻziga xos xususiyatlari..... | 116 |
| Isayev S.A. Transmilliy narkotahdidlar: zamonaviy tendensiyalar, muammolar va qarshi kurash mexanizmlari..... | 126 |
| Jamoldinov X.B. Kiberjinoyatchilik: zamonaviy tahdid va uning mintaqaviy xususiyatlari..... | 139 |
| Payziyev A.M. Transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashishni raqamli davr sharoitida takomillashtirish: muammolar va yechimlar..... | 143 |
| Olimjonov X.M. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini takomillashtirish..... | 152 |
| Oʻrinov O.L. Mintaqaviy jinoyatchilikning oʻziga xos xususiyatlari (uyushgan jinoyatchilik va odam savdosiga qarshi kurash faoliyatlari misolida)..... | 160 |
| Tursunbayev D.T. Mintaqaviy jinoyatchilik taʼsir etuvchi omillarning kompleks monitoringi: kriminologik bashorat va oldini olish mexanizmlari..... | 164 |
| Rixsimov K.A. Samarqand viloyatida sodir etilgan oʻgʻrilik jinoyatlarining kriminologik tahlili..... | 172 |
| Abdumalikov A.A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va oldini olish muammolari hamda yechimlari fargʻona viloyati misolida..... | 179 |
| Oʻrinova D.A. Fargʻona viloyatida ayollar jinoyatchiligining holati, tuzilishi va dinamikasi hamda respublika bilan qiyosiy tahlili..... | 190 |

| | |
|--|-----|
| Umirzakov B.A., Jurayev Z.A. Mintaqaviy (hududiy) jinoyatchilik dinamikasi va tendensiyalari: o'g'irlik jinoyati misolida..... | 202 |
| Magrubov M.M. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda dronlarni ishlatishda horijiy davlatlar tajribasi..... | 210 |
| Jurayev Z.A. Mintaqaviy jinoyatchilik dinamikasi kontekstida o'g'irlik jinoyatining kriminologik tavsifi va uning oldini olishni takomillashtirish..... | 216 |
| Saydaliyev I.S. Yoshlar o'rtasida hududiy jinoyatchilikning ijtimoiy omillari va uni oldini olishda oliy ta'lim tizimining ro'li (tarbiyasi qiyin talabalar misolida)..... | 222 |
| Noraliev T.E. Jinoyat predmetining jinoyat obyekti va jabrlanuvchi bilan o'zaro nisbati: nazariy va amaliy yondashuv..... | 230 |
| Raximova S.A. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish jinoyati tarkibining sub'ekti va subyektiv tomon xususiyatlari..... | 240 |
| Bekmurodova U.A. Jinoyat qonunining davlat hududidan tashqarida amal qilishi haqidagi ilmiy g'oyalar evolyutsiyasi..... | 252 |
| Narbayeva N.J. Zamonaviy jamiyatda jinoyatchilikka ta'sir qiluvchi omillar..... | 266 |
| Samatova D.Yu. Ijtimoiy reintegratsiya: jazoni o'tab chiqqan ayollar bilan ishlashning dolzarb yo'nalishlari..... | 270 |
| Egamberdiyeva D. Voyaga yetmagan shaxslar delikt javobgarligiga oid qonunchilikning tizimli tahlili..... | 276 |
| Xalilova Z.Z. Ojiz ahvoldagi shaxslarni jinoyat-huquqiy himoya qilishning ijtimoiy-huquqiy zarurati..... | 282 |
| Ibragimov A.I. Sirdan ehtiyot chorasini tanlash institutining qonunchilik bo'shliqlari va takomillashtirish yo'llari..... | 291 |
| Nazirjonov N.N. Internet tarmog'i resurslarida saqlanayotgan raqamli ma'lumotlarni qayd qilishning kriminalistik jihatlari: nazariy-huquqiy tahlil..... | 300 |
| Ro'ziyeva G.S. Raqamli makonda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishning zamonaviy va samarali mexanizmlari..... | 313 |
| Pulatov B.A. Jinoyat qonunchiligida blanket normalar shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-huquqiy tahlili..... | 323 |
| Normanov O.E. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatini o'xshash jinoyatlardan farqlash masalalari..... | 339 |
| Xodjayev Sh.M. O'zbekiston respublikasi jinoyat huquqida jinoyatda ishtirokchilik instituti: murakkab shakllarni kvalifikatsiya qilish muammolari va xorijiy tajribaning qiyosiy-huquqiy tahlili..... | 352 |
| Kurbanaliyev S.A. O'zbekiston jinoyat huquqida jazolarni erkinlashtirish va probatsiya tizimini takomillashtirish masalalari..... | 362 |
| Matchanov A.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va sun'iy intellekt davrida raqamli kriminologiya: jinoyatlarning oldini olishning huquqiy asoslari va algoritmlari..... | 368 |

**“MINTAQAVIY JINOYATCHILIKNING DINAMIKASI VA
TENDENSIYALARI” NOMLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI TO‘PLAMI**

(2026-YIL 15-APREL)

Muharrir: tuzuvchilar tahririda

Sahifalovchi: S.A. Isayev

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
tahririy noshirlik markazida tayyorlandi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo-ulug‘bek tumani,
Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 243-uy.